

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA METAFORA

M.A.Xalova¹

Annotatsiya:

Maqolada zamonaviy she'riyatda metafora hodisasi haqida ma'lumot berilgan. Uning ko'p qatlamli xususiyatlari nazariy jihatdan asoslanilgan. Nazariy ma'lumotlar Rauf Parfining "Tovba" she'ri asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: modernizm, metafora, struktura, dunyoqarash, ko'p ma'nolilik, idrok, tahlil, petik mushohada, badiiy olam.

Metafora modernizm poetikasida mumtoz adabiyotdagi majozdan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Modernistik metafora ko'pqatlamli strukturaga ega. Metafora tabiatiga xos ko'p ma'nolilik ko'rsatmasiga bo'lgan talab, ayniqsa, tarix va ilmiy dunyoqarashlarda davrlar o'zgargan payt – XX-XXI asrlar oralig'ida yanada kuchaydi. Dunyoning ko'nikib qolingan kartinasini gavdalantirib kelgan ilgari qadriyatlar, koordinatalar va mantiqiy aloqalarga ishonchning yo'qolishi ortidan assotsiativ aloqalar dolzarblik kasb etdi. O'z tabiatiga ko'ra mantiqqa zid aloqalarni ochib tashlovchi metafora dunyoni idrok qilish prinsipiga aylanish orqali san'atda muhim rol tuta boshladi. Modernizm lirikasida bir qadar "ulg'aygan", ko'p subyektli va buning ortidan ko'p darajali bo'lgan metafora yangi vazifa – matnni tashkil etish funksiyasini o'z zimmasiga oldi. Bunday struktura turlicha uqishni tug'diradi va birgina yo'nalishdagi talqinga qarshilik ko'rsatadi.

Biroq hali hanuz o'zbek modernistlari ijodidagi metaforaga an'anaviy tarzda faqat tor ma'nodagi trop sifatida qarab kelinmoqda. Uning ko'p qatlamli strukturasi va ko'p sonli semantik hamda struktur aloqalarining o'ziga xos jihatlari e'tibordan chetda qolayotir. Shu asnoda, dunyoning spetsifik kartinasini gavdalantirish vositasi sanaladigan aynan shu struktur aloqalar va ular orqali yuzaga keladigan ma'nolar modernizm poetikasining o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, o'zbek adabiyotshunosligida ko'p qatlamli metafora poetik tafakkurning hal qiluvchi tamoyili va badiiy matn strukturasi asosi sifatida tadqiq etilmagan.

Metafora kundalik, ilmiy va badiiy nutqda ham keng tarqalgan. Nazmda esa u alohida o'rin tutadi: "Poetik nutq o'z mohiyatiga ko'ra ko'p ma'noli. Shuning uchun ham metafora o'zining tabiiy o'rnini aynan poetik nutqda topadi. Uning vazifasi – obrazlarni, tasavvurlarni chorlash, axborot yetkazish emas, balki uni individuallashtirishdir" [1,367]. Demak, metaforaning asosiy vazifasi – obraz yaratish – uning strukturasi shartlantiradi. Ushbu strukturani tavsiflash uchun M.Blek "metaforaning bosh subyektli va ko'makchi subyektli" terminini muomalaga kiritgan [2,163]. Rus olimasi N.D.Arutyunova ushbu terminlardan foydalanib metaforaning to'rt komponentli teran tarkibiy qismdan iborat konsepsiyasini ishlab chiqqan: "...metafora qurilishida uning yuzaki strukturasi shartli belgilari qisman izohlanadigan ikkita ma'no (ikkita obyekt) – M.Blek ta'riflaganidek, metaforaning asosiy va yordamchi subyektlari va har bir obyektning ba'zi bir xossalardan iborat to'rtta komponent ishtirok etadi. Metaforaning turli xillarida uning ichki tuzilishiga xos turli elementlar izohlanadi. Odam tunda eridi deyilganda, metaforaning yordamchi subyektli (qor, muz)

¹ Xalova Maftuna Abdusalamovna, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

erimoq fe'lining ma'nosidan kelib chiqadi. Metaforaning ma'nosini yordamchi subyekt alomatlari belgilaydi. Metaforaning bosh natijasi, uning maqsadi asosiy subyektning alomatlarini yuzaga chiqarish hisoblanadi" [1,367-368]. Misol uchun, U.Nosirning "yurak sensan mening sozim" metaforasida bosh subyekt yurak eksplikatsiya qilingan (sharhlangan), yordamchi subyekt – jonli mavjudot (tub ma'no) esa mening sozim fe'lidan kelib chiqayotir. Yordamchi subyekt alomatlaridan metafora bosh subyektining alomatlari olib chiqilmoqda: yurak – mening dardlarimni elga yoyadigan ozurda jon –sensas. Shunday qilib, an'anaviy ma'nosida tushunadigan bo'lsak, metafora o'tgan asr boshidagi she'riyatimizda ko'chim sifatida obraz yaratayapti va ikki ulanmaydigan semantik maydonni bitta yaxlit maydonga birlashtirayapti. Bunday metaforani shartli tarzda "mumtoz" metafora deb ataymiz.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida yuz bergan voqealar, ayniqsa, mustaqillik o'zbek adabiyotini ham o'zgartirib yubordi. O'zbek adabiyoti tubdan o'zgargan milliy ong, tamomila yangilangan estetik o'zgarishlarning mahsuli sifatida fikrlash tarzi, ijod qilish yo'sini o'zgacha ijodkorlarni yuzaga chiqardi. "Bu davr she'riyatida o'tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql o'rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga e'tibor kuchaydi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi" [9,77].

Modernizm metaforalarida ma'no xiraligi va okkazionalligi avjiga chiqdi. Metaforaning g'oyaviy vazifasi transformatsiyaga uchradi. Modernistik metafora nafaqat dunyo obrazini qayta tiklash, balki uning beqaror va o'zgaruvchanligini gavdalantirish yo'siniga, "hamma qadriyatlar nisbiyligi va barcha haqiqatlar tengligi" deklaratsiyasiga aylandi. Buning natijasida metaforaning tarkibiy tuzilishi ham o'zgardi: "...bosh metafora o'sha paytning o'zida turli yo'nalishlar bo'yicha ketayotgan ikkinchi darajali bir yoki bir nechta hosila metaforalarni metaforizatsiyalash obyektiga aylanadi. Murakkab butunning barcha elementlari muhimlik kasb etishining qat'iy iloji bo'lmay, qurilmaning irratsionallik taassuroti eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi" [3,320-321]. Qo'shaloq semantik qatlamlarning birikishi va obrazli metadarajaning tug'ilishi modernistik metafora uchun faqat birinchi daraja hisoblanadi. Birinchi darajadagi bu metafora bosh subyekt sifatida boshqa bir, yordamchi subyekt maqomidagi uchinchi semantik qator bilan birlashib, ikkinchi darajali yangi metaforani hosil qiladi va hokazo. Semantik jihatdan bir-biriga nomuvofiq metaforalarning cheksiz miqdorda bir shodaga tizilishidan g'aroyib irratsional obrazlar tug'ilib, o'zida dunyoni his etishning omonatligini, parchalanuvchanligini mujassamlantiradi. Modernizm lirikasida boshlang'ich metafora o'zining yasama shingillari bilan kengaya borib, jamiki matnni o'z tarkibiga qo'shib oladi. Bu hodisani shartli ravishda "metaforik tafakkur she'riyati" deya ataymiz. Metaforik tafakkur qonunlariga binoan tuzilgan matn birgina ma'noda talqin qilinishga monelik ko'rsatadi. Uning ko'p qatlamli metaforadan qad ko'targan strukturasi prinsipial jihatdan farq qiladigan ko'p tomonlama tahlillarning garovi hisoblanadi. Metaforik tafakkurga misol tariqasida R.Parfining "Tavba" to'plamidan o'rin olgan she'rlardagi metaforalarning tuzilishi va vazifasini ko'rib chiqamiz. Ayni paytda, metaforiklikni keng ma'nosida – murakkab qurilmali ma'joziylik ma'nosida tushunamiz. Obraz yaratishda qatnashadigan jamiki metaforik kontekstni metafora deb olamiz. "Tavba" she'rlar to'plamining birinchi she'ri ham "Tavba" deb ataladi. Aslida kitobning nomlanishiga ulgi bo'lib xizmat qilgan bu sonetlar guldastasi butun boshli to'plamning mohiyatini ifodalab, shoir umri mazmunidan hikoya qiladi. She'r an'anaviy sonet shaklidagi uch alohida qismdan iborat. Birinchi qismda lirik qahramon Allohga murojaat qilar ekan, turmushning "ayovsiz yengilliklari"dan yozg'iradi:

1. Dodimni eshitgil, qodir Allohim,
Ishq sensan, oshiq ham sen, men qulingman.
Loyiqman qahringga, do'zaxim-bog'im,
Omonat devorman, o'tman, kulingman.

Rub'i maskun ichra sayyod, o'zim sayd,
Ortiq madorim yo'q, voqifsan axir.

Manglayda yozilgan farmoningni ayt,
 Da'vat qil, gunohkor bandangni chaqir.
 Iymon ber ruhimga, jismimga jon ber,
 Loyimni qorishtir, poklab ber menga.
 Ojiz tomirimga pokiza qon ber,
 Ravshan qil, qoramni oqlab ber menga.
 Oxirat ilmidan qil meni ogoh,
 Murodim sha'mini so'ndirma, Alloh [11, 229].

Birinchi band murakkab metaforik tuzilishga ega. Yoyiq metafora sifatida u Bahouddin Naqshbandning kitobga epigraf qilib olingan "Ishqda aqlu tanu dilu jon bo'lmas" o'gitini yoyiq tarzda izohlab kelmoqda. Ammo birinchi darajali bu metafora bir vaqtning o'zida metaforik tafakkurning ko'pqatlamli ifodasi hamdir. Bu yerda "Ishq sensan, oshiq ham sen, men qulingman" metaforasi ikki semantik qator: "qandaydir hodisa (harakat)" va "kitob epigrafi" ma'nolarini yagona obrazga birlashtirayapti.

"Omonat devorman, o'tman, kulingman" metaforasi inson irodasiga bo'ysunmaydigan botiniy holat – ibodatning o'ta ko'tarinkiligini ifodalab, ikkinchi darajani hosil qilayapti. Biroq u ham "qandaydir harakat"ni kitobning epigrafi sifatida belgilab, birinchi darajali metafora elementi sifatida qolmoqda. Birinchi darajali metafora elementi sanaladigan "Loyiqman qahringga, do'zaxim-bog'im" metaforasi ham yangi ma'noni chaqirib, uchinchi darajani hosil qilayotir. "O'zini allaqanday mavhumlik hukmiga otayotgan odam" ma'nosini berayotgan "Loyiqman qahringga, do'zaxim-bog'im" metaforasi o'z tarkibidagi "do'zaxim-bog'im" o'xshatishi tufayli murakkablashmoqda. Bu kabi majozlar "g'ujumi" ko'plab ma'nolarni tug'dirishi va buning natijasida turlicha talqinlarni keltirib chiqarishi mumkin. Modomiki, majoziy tuzilmalarni tashkil etuvchi unsurlardan tashqari ular o'rtasidagi aloqalar ham turlicha talqinlarni yuzaga keltiradi. Ikkinchi darajali metaforaning kutilishi mumkin bo'lgan bir nechta talqinlariga misol keltiramiz. Aynan tushuniladigan bo'lsa "do'zaxim-bog'im" iborasi:

1. Do'zaxga tushirsang ham, jannatga tushirsang ham – ixtiyoring;
2. Qahhor ham, Rahmon ham – o'zing;
3. Sendan o'zga iloh yo'q;
4. Inonim qo'lingdaligiga ishonchim komil ma'nolarini anglatadi.

Xuddi shu iborani ko'chma ma'nosida tushunadigan bo'lsak, qandaydir sirli, quvonchli holat – masrurlik yuzaga kelganligi anglashiladi: lirik qahramon Yaratgan bilan yolg'iz qolish, unga nola-yu jola qilish payida jonsarak. Ammo ushbu metaforik "g'ujum" muxtor holatda emas, u birinchi darajali metafora unsuri sifatida kitobga epigraf bo'lgan ulumni (harakat) qayd etib, talqinning yanada ko'p qirrali bo'lishini ta'minlamoqda. She'rning ikkinchi bandida "Rub'i maskun ichra sayyod, o'zim sayd" degan yangi metafora yuzaga kelmoqda. U ifodalayotgan hasrat motivi butun boshli she'rning hissiy bo'yoqdorligini ta'minlagan. Ammo unga munosabatda birgina aniq talqin bilan kifoyalanib bo'lmaydi. "Sayyod" iborasi shikorga chiqqan ovchi sifatida tushunilganda, bir paytlari bajargan va bajarmagan amallaridan iztirob chekayotgan lirik qahramonning ruhiy tushkunligi ta'kidlanayotgan bo'ladi. Sabr-toqati tugagan qahramon Allohga yuzlangan paytidagina tubsiz iztiroblarini xotirga olayotir. Ana shu mubham chalkashlik yodi "sayd" iborasi orqali ifodalanmoqda. Shoir Yaratganning hammasidan voqifligini, kuzatib turganligini biladi. Shuning uchun ham qismat tuzog'iga o'lja bo'lgisi, Alloh chaqirig'ini tezroq eshitgisi keladi. "Ortiq madorim yo'q" deyish orqali shoir bunday mubhamlikka, noaniqlikka toqat qilolmasligini bayon etsa, "Da'vat qil, gunohkor bandangni chaqir" deya yo bunga biror chora berishini va yoki jonini olishini so'raydi. Sintaktik qurilishiga ko'ra metafora bir vaqtning o'zida ham turlicha uqishni talab qiladi, ham bunga qarshilik ko'rsatadi.

Uchinchi bandeda iqrorning tavnaga, iztirobning o'tinchga aylanishi yanada kuchaytiriladi: "Iymon ber ruhimga, jismimga jon ber, Loyimni qorishtir poklab ber menga". Ko'pchilikka hozirgina "gunohkor bandangni chaqir", deya yozg'irib turgan qahramonning endilikda "jismimga jon ber" deyishi g'alati tuyulishi, tabiiy albatta. Ammo "ojiz tomirimga pokiza qon ber" metaforasi ifodalab kelayotgan "faqat ruhimni emas, jismimni ham poklab

ber” ma’nosini uqsagina kitobxon bu g’alatilikni kechirish ehtiyojini sezadi. Xuddi shu yerga yetganda, ya’ni to’rtinchi bandda to’rtinchi darajali metafora yuzaga keladi: “Ravshan qil, qoramni oqlab ber menga”. Aynan o’zi tushunmayotgan anglamsizliklarni anglash istagi qahramon bo’g’zidan otilayotgan “Oxirat ilmidan qil meni ogoh” degan o’tinch ma’nosini teranlashtiradi. To’rtinchi darajali metafora she’rda avval ayon bo’lgan barcha ma’nolarning ahamiyatini bir nuqtaga jamlaydi. Yangi semantik maydon bilan qo’shilgan so’nggi ma’no yanada boyib, “Murodim sha’mini so’ndirma, Alloh” iltijosiga yo’l ochadi. To’rt sathli murakkab metaforani sxematik tarzda quyidagicha talqin etsa bo’ladi: ibtidoiyu intihoning ovushib ketganligi fojiasi bu kitobning muboshiri (epigraf) bo’lgan, faqat tazarru orqaligina odamzot tozarishi mumkinligi she’rda bosh kredo darajasiga ko’tarilgan.

To’rt sathli metafora she’rga o’lim (farmoningni ayt, bandangni chaqir) va tiriklik (jismingga jon ber, murodim sha’mini so’ndirma) motivlarini kiritgan. Bu motivlar beradigan metaforik ma’no matn ichki tuzilishidan sizib chiqqan. Shoir she’riyatining ko’pqatlamli metaforalar asosidagi ramziylikka yo’g’rilganligi quyidagi fikrda o’zining to’la tasdig’ini topgan: “R.Parfi lirikasining timsolli obrazlar asosiga qurilishi esa insonning ijtimoiy faoliyatini, ma’naviy hayotini anglash va tushuntirish yo’lidagi izlanish samarasidir” [10,223]

Xullas, “Tavba” she’rining tuzilishi R.Parfi badiiy olamiga xos qadriyatlar tizimida hal qiluvchi o’rinda turuvchi tushunchalar – o’lim va hayot konseptlarining ko’pqatlamli yoyiq metafora yordamida murakkab yagona obrazga birikishi bilan belgilanadi. She’rning asosiy motivi sanaladigan tavba ko’rinishidagi hasrat metaforasi o’z tuzilishi va boshqa o’xshatishlar bilan munosabatiga ko’ra matn talqinlarining turlicha bo’lishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – С. 367.
2. Блэк М. Метафора / Пер. с англ. М.А. Дмитриевской // Теория метафоры: Сб.: Пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. / Вступ. ст. и сост. Н.Д. Арутюновой; Общ. ред. Н.Д. Арутюновой и М.А. Журиной. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 163.
3. Жирмунский В.М. Поэтика русской поэзии. СПб.: Азбука-классика, 2001. – С. 320-321.
4. Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Худож. лит., 1974. – С. 66.
5. Левин Ю.И. Русская метафора: Синтез, семантика, трансформации // Учёные записки Тартуского гос. ун-та, вып. 263. Труды по знаковым системам, IV. Тарту, 1969. – С. 301.
6. Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н. Николюкина. Институт научной информации по общественным наукам РАН. – Москва: НПК «Интелвак», 2003. – Столбик. 533.
7. Новейший философский словарь / Гл. ред. А.А. Грицанов. – Москва: Книжный Дом, 2003. – С. 623.
8. ЎТИЛ. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 2-жилд.
9. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006. – Б. 77.
10. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: “Фан”, 2007. – Б. 223.
11. Рауф Парфи. “Туркистон руҳи”. Сайланма. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Вафо Файзуллоҳ. – Тошкент: Шарқ, 2013. – Б.229.